



## TILSHUNOSLIKNING RIVOJLANISHI VA TIL BILAN NUTQ ORASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABAT

**Muallif:** Shodiyev Rahimjon Safarovich <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15174712>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tilshunoslikning tarixiy rivojlanish bosqichlari, til elementlari, tilning insonlar uchun xizmat qilishi, til bilan nutq orasidagi dialektik munosabat, til elementlarining me'yorlashish jarayonida eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash, tilning lug'at tarkibi va fonemalar sistemasi va hodisalarning mustahkamlashuvi hamda til o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan tizim ekanligi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tilshunoslik, leksika, grammatika, til va nutq, nutq madaniyati, adabiy til, o'zbek tili, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarash

Tilshunoslik fani – lingvistika hozirgi darajaga yetgunicha uzoq tarixiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Uning yaratilishida o'tmishda yashagan va ijod etgan juda ko'p mutafakkirlarning ishtiroki bor. Ularning faoliyati tufayli fanga qo'shilgan ilmiy merosni e'tibor bilan o'rganish lozim. Tilshunoslik fani bosib o'tgan uzoq yo'lni ilmiy asosda yoritib berish uchun bu yo'lni qadimgi asrlarda, O'rta asrlarda va yangi asrlarda tilshunoslik kabi tarixiy - xronologik davrlarga bo'lish mumkin. Tilshunoslikning tarixiy rivojlanish bosqichlari qanday prinsipda nomlanmasin, ularning vaqt jihatidan oldin yuzaga kelganlari keyingilari uchun zamin tayyorladi, dastlabki manba vazifasini o'tadi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum davrida zaruriyat natijasida asta-sekin yozuv yaratilgan. Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Ana shu yozuvlardan juda keng tarqalgani lotin alifbosi asosidagi yozuvlardir. Jahondagi xalqlarning 30 % dan ziyodi lotin yozuvida yozadilar. Xalqimizning dunyo fani va madaniyatida, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan o'rni, egallagan mavqeyi haqida so'z yuritganda bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, yunon, karoshta, sug'd, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uyg'ur, arab, lotin, rus (kirillisa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, o'zbek adabiy tilining shakllanishi, o'zbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir. Tilshunoslik nafaqat til o'qituvchilari va tarjimonlar uchun, balki psixologlar, sotsiologlar, antropologlar, kompyuter olimlari va sun'iy intellekt sohasidagi mutaxassislar uchun ham muhim fan hisoblanadi. Har bir yo'nalish alohida tadqiqot obyekti bo'lib, tilshunoslikning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

O'rta Osiyolik olimlar o'z davri traditsiyasiga ko'ra ko'p tomonlama mutaxassis bo'lganlar. Ular tabiiy va aniq fanlar qatorida filologiya bilan ham shug'ullanganlar. Masalan, tibbiyot, meditsina va til ilimlari o'zaro uzviy bog'langanligidan, O'rta Osiyo va Xurosandada yashab ijod etgan al Beruniy, al Roziy, Abu Mansur Buxoriy, Ibn Sino kabi ulug' kishilar ham tabib, ham botanik, ham tilshunos bo'lganlar. Shuning uchun o'rta asir Sharq olimlarini ensiklopedik olimlar deyish to'g'ri bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali nomoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir." [1, 52b]

"Til - millatning eng katta boyligi." Fitrat tilning millat uchun ahamiyatini, uni asrab-avaylash va rivojlantirish zarurligini uqtirgan. Abu Nasir Farobiy esa (IX-X asr) arab tilida birinchi marta "Fanlarning tasnifi" deb ataladigan ensiklopedik asar yaratganligi ma'lum.

X-XII asrlarda O'rta Osiyoda madaniyat juda yuqori bosqichga ko'tarildi. Jahonning bu davrdagi mashhur matematiklari, astronomlari, faylasuflari, tarixshunoslari, shifokorlarga emas, balki filologlari ham O'rta Osiyodan chiqqan. O'rta Osiyoning asosiy aholisi bo'lgan turkiy va eroniy qabilalarga mansub olimlarning ba'zilari, boshqa fanlar bilan ham bir qatorda, tilshunoslik bilan ham shug'ullanganlar. O'rta Osiyo tilshunoslari yuqorida ko'rib o'tilgan manbalardan, ayniqsa, arab tilshunosligidan yaxshi xabardor edilar. Antik tilshunoslik g'oyalari ham, asosan arab tilidagi asarlar orqali tarqalgan. Ammo shu bilan birga, O'rta Osiyo olimlari o'z navbatida tilshunoslikka ma'lum darajada yangi fikrlar kiritganlar.

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajratilib, o'zicha alohida mustaqil fan deb tanilgan davrlardan boshlab til bilan nutqni farqlashga e'tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma tomonidan ham til bilan nutq bir- biridan farqlanavermadi. Shuning uchun, ko'pincha, nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib keldi. [6, 37b]

Tilshunoslikda keyingi yillarda til bilan nutq hodisalarini farqlashga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Til ma'lum miqdordagi nutq tovushlarining turli kombinatsiyasi bilan kishilar bir- birlariga bildiradigan so'zlar, grammatik vositalar va ulardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan degan fikr XIX asrning birinchi yarmida qiyosiy grammatikachilar tomonidan ilgari surildi. Hozir ham tilni shu xilda tasavvur qiladilar. Ma'lumki, til o'ziga xos strukturaga ega bo'lgan sistemadir. Til bir- birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas holda bo'lgan ikki elementdan tashkil topgan.

Bular: a) leksika, ya'ni lug'at tarkibi. b) grammatika. Ularning har biri nutq tovushlaridan iborat bo'lgan materiyaga ega. Tilning lug'at tarkibi va fonemalar sistemasi uning jismi, tanasi bo'lsa, grammatik va intonatsion qoidalar joni, hayot bag'ishlovchi tushunchalardir. Grammatika nutq uchun qolip, modeldir. Tilning insonlar uchun xizmat qilishida zamonaviy qoidalarning ahamiyati katta, albatta. Grammatik qoidalar zamon talabiga ko'ra moslashib, o'zgarib turmasa, tilning taraqqiyoti uchun kishan bo'lib qoladi. Nutqdan oldin va keyin til elementlari xotiraga saqlanadi, ya'ni nerv markazlarida ichki qobiliyat, potensial imkoniyat tarzida mavjud bo'ladi. Masalan, biron sabab bilan gapirish qobiliyatini yuqotgan kishi tilni yuqotmaydi. Buni shundan ham

bilsa bo'ladigan, u so'zlovchining gapiga (tovush tili orqali aytgan gapiga) monesiz tushunadi va unga tildan boshqa vositalar bilan, chunonchi, imo ishora bilan javob ham beradi. Gapirish qobiliyatini yo'qotgan kishida so'zlar yordamida cuhbatdoshiga javob berish, ya'ni o'z fikrini so'z bilan bildirish yo'q, xolos. Bunday kishi o'z xotirasida so'zning talaffuz etilishi va eshitgandagi obrazlarini saqlaydi-yu, biroq nutq organlari yordamida so'zning talaffuz etilishi va eshitgandagi obrazlarini yangidan real faktga, tovushlar signaliga aylantira olmaydi [3, 10 b]. O'rta Osiyoning ulug' olimlaridan biri Abu Nasr Forobiy « Baxt- saodatga erishuv haqida» degan falsafiy asarida «... inson insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlashga muhtojdir, har bir inson tabiatida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish, o'zaro aloqa qilish xususiyati bor», - deydi.

Yevropada Uyg'onish davrining dastlabki davri mashhur namoyondasi Dante XIX asrda til fikrini bir- biriga tushuntirish uchun insondagina kerak degan.

Til qachon ma'lum funksiyani bajarishi mumkin?

Til so'zlashish vositasi, nutq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum funksiyani bajaradi. Masalan: kishilarning xotirasida ma'lum sanoq tushunchalari mavjud. Bular:1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 va hakoza.[3, 78-80 b]

Bu sonlar til faktlari bo'lib, ular shu holda ayrim tushunchalardan o'zga narsa emas. Shu tushunchalar yordamida hayotda turli hisoblash ishlari bajariladi. Til faktlari (yoki elementlari) Alisher Navoiyning ta'biri bilan aytganda «nutqning qurolidir».

Til bilan nutqni qiyoslaganda ularni Til elementlari - tilni tashkil etuvchi va uning funksiyalarini bajarishga imkon beruvchi unsurlar. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Fonemalar: Tilning eng kichik ma'no farqlovchi tovush birliklari (masalan, "b" va "p" fonemalari "bor" va "por" so'zlarining ma'nosini farqlaydi).

Morfemalar: So'zning ma'noli qismlari (masalan, "kitob-lar", "kitob" - o'zak morfeema, "lar" - affiks morfeema).

So'zlar: Ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan va gap tuzishda ishlatiladigan mustaqil birliklar.

Gaplar: Fikrni ifodalash uchun so'zlarning grammatik qoidalarga muvofiq birikishi.

Matnlar: Mantiqiy va grammatik jihatdan bog'langan gaplar ketma-ketligi.

Til va nutq o'rtasida dialektik munosabat mavjud, ya'ni ular bir-biri bilan doimiy o'zaro ta'sirda bo'ladi va bir-birini rivojlantiradi. Til nutq uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Nutq tilda mavjud bo'lgan qoidalar, me'yorlar va resurslarga asoslanadi. Nutq tilning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Nutqda paydo bo'lgan yangi so'zlar, iboralar va grammatik konstruksiyalar vaqt o'tishi bilan tilga kirishi mumkin. Til nutqni tartibga soladi. Tilning qoidalari va me'yorlari nutqning shaklini va mazmunini belgilaydi. Nutq tilning mavjudligini ta'minlaydi: Agar til ishlatilmasa, u o'ladi. Nutq tilning hayotiy faoliyatini ta'minlaydi.

Ushbu dialektik munosabat tilning doimiy o'zgarishi va rivojlanishiga olib keladi. Til nutq orqali o'zgaradi, nutq esa tilda mavjud bo'lgan imkoniyatlardan foydalanadi. Shu sababli, til va nutqni bir-biridan ajratib o'rganish mumkin emas, ular bir butunning ikki tomonidir. Til bilan nutq orasidagi dialektik munosabat shundan iboratki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi, nutq til elementlaridan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi, til elementlari yana nutq faoliyati uchun xizmat qiladi.

Quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bir-biridan ajratib turadi:

1.Til aloqa materiali – nutq esa aloqa formasidir.

2. Tilni xalq yaratadi- nutqni esa har bir shaxs yaratadi.

3. Tilning hayoti uzoq, xalq hayoti bilan bog'liq- nutqning hayoti qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud (yozma nutq bundan mustasno).

4. Tilning hajmi noaniq – nutqning hajmi aniq: u dialog, monolog, ayrim matn, kitob formalarida bo'lishi mumkin. [4, 91-92b]

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardan o'q uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan. Til insoniyat uchun juda muhim va ko'p qirrali xizmat qiladi:

Aloqa vositasi: Til insonlarga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va ma'lumotlarni boshqalar bilan o'rtoqlashishga imkon beradi.

Tafakkur vositasi: Til insonning fikrlash jarayonida muhim rol o'ynaydi, abstrakt tushunchalarni ifodalashga yordam beradi.

Bilim vositasi: Til orqali insonlar bilim oladi, uni saqlaydi va keyingi avlodlarga uzatadi.

Madaniyat vositasi: Til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tkazishga yordam beradi.

Identifikatsiya vositasi: Til insonlarning milliy va ijtimoiy o'zligini belgilaydi.

Estetik vosita: Til adabiyot, san'at va folklor orqali insonlarga estetik zavq beradi. Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlari singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Til va nutq - tilshunoslikning fundamental tushunchalari bo'lib, ular o'zaro chambarchas bog'liq, lekin mohiyatan farq qiladi. Til - bu muayyan jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladigan, tarixan shakllangan va rivojlanib boradigan belgilar sistemasi. Til - ijtimoiy hodisa, u jamiyat tomonidan yaratiladi va qo'llaniladi. Til, odatda, abstrakt va potensialdir. U - qoidalar, me'yorlar va resurslar to'plamidir.

Nutq - bu tilning amalda qo'llanilishi, ya'ni tilning real hayotda ifodalanishi. Nutq - individual hodisa, u har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Nutq konkret va aktuallashtiruvchi. U - til qoidalariga asoslangan holda yaratilgan og'zaki yoki yozma xabardir.

Til va nutqning o'zaro bog'liqligi:

- Nutq tilda mavjud bo'lgan qoidalarga asoslanadi.
- Til nutq orqali namoyon bo'ladi va rivojlanadi.
- Nutq tilning resurslaridan foydalanadi va shu bilan birga, tilga yangi elementlar kiritishi mumkin.
- Til nutqni tartibga soladi va unga ma'lum bir shakl beradi.

Til - bu imkoniyat, nutq esa shu imkoniyatdan foydalanishdir. Til - qurilish materiallari, nutq esa shu materiallardan qurilgan binodir. Til va nutq bir-birini to'ldiradi va birgalikda insoniyatning aloqa jarayonini ta'minlaydi.

Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart- sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni ma'lum ma'noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi. «Nutq madaniyati keng miqyosidagi til tarbiyasini va ommaviy stilistik savodlilikni, boshqacha aytganda, so'zlovchi va yozuvchi omma orasida til haqidagi fanning hozirgi zamon yutuqlarini tatbiq etishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi»[5, 52-53b]

Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyotning o'rne ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladi. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar o'sha matnning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rin olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi. Tildagi birliklar va hodisalarning mustahkamlashuvi hamda me'yorlashuvida yozuvning xizmati katta ekanligi shubhasiz.

Til elementlarining me'yorlashishidek uzluksiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermaydi. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin. Xuddi mana shu eskilik bilan yangilik o'rtasidagi kurash va bu kurashda tildagi me'yoriy ko'rinishlarning tanlana borishi jarayonida adabiy til shakllanib boradi. O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi. Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham, ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. Til tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, rasmiy muomalada tildan foydalanish uning me'yorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan.

O'zbek tilshunosligiga o'zbek tilshunoslarining fikri, bu sohaning rivojlanish tarixi va bugungi kundagi holatini tushunish uchun juda muhimdir. O'zbek tilshunoslarining fikrlari asosan quyidagi yo'nalishlarda shakllangan:

Tilning milliy o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish: O'zbek tilshunoslari tilning milliy xususiyatlarini, uning tarixiy ildizlarini o'rganishga katta e'tibor qaratganlar. Bu borada, ayniqsa, o'zbek tilining leksikasi, grammatikasi va dialektlarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Til ta'limi va metodikasi: O'zbek tili ta'limi metodikasini takomillashtirish, darsliklar yaratish va o'qitishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish o'zbek tilshunoslarining doimiy e'tiborida bo'lgan.

O'zbek tilida terminologiyani rivojlantirish, yangi atamalarni yaratish va adabiy til me'yorlarini aniqlashtirish o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda o'zbek tilini kompyuter texnologiyalari bilan integratsiyalash, avtomatik

tarjima sistemalarini yaratish, matnlarni tahlil qilish va nutqni tanish texnologiyalarini ishlab chiqish sohasida ham faol ishlar olib borilmoqda. Shuhrat Rahmatullayev o'zbek tilining lug'at tarkibini, etimologiyasini o'rganishga bag'ishlangan ishlari o'zbek tilshunosligi uchun katta ahamiyatga ega.

Hozirgi o'zbek tilshunoslari tilning globalizatsiya sharoitida rivojlanishi, yangi texnologiyalarning tilga ta'siri, tilning ijtimoiy funksiyalari, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi masalalarga katta e'tibor qaratmoqdalar.

Umuman olganda, o'zbek tilshunoslarining fikri o'zbek tilining o'ziga xosligini saqlash va rivojlantirish, uni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash, ta'lim sifatini oshirish va tilshunoslik sohasidagi yangi tendensiyalarni o'rganishga qaratilgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkamlangan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan. Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilishi hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каримов И.А. Юксак маънавият- енгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008й
2. Abduazizov A. Tilshunoslik nazaryasiga kirish. –Toshkent 2010
3. Свегенсев В.А “Предложение и его отношение к языки и речи ”М. 1976.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –T: O'qituvchi. 1992
5. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. T.1972.
6. Xolmanova Z. T. Tilshunoslikka kirish. Toshkent 2007 y.